

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №11

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2025 noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari  
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 464 sahifa.  
2025-yil, noyabr

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
<b>Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich</b>	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI .....	22
<b>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</b>	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR .....	30
<b>Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi</b>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI .....	35
<b>Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna</b>	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
<b>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
<b>Xodjimatrov Xamidullo Mamirjonovich</b>	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
<b>Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich</b>	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
<b>Axatova Shahnoza</b>	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH .....	63
<b>Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna</b>	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
<b>Хошимова Камилла Навфал қизи</b>	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ .....	79
<b>Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна</b>	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
<b>Файзиёв Умуркул Шухратович</b>	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI .....	97
<b>Jalilov Jamshid G'anijonovich</b>	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
<b>Ўролова Севара Бехзод қизи</b>	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
<b>Narziyev Hayotjon Azamatovich</b>	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
<b>Allakuliyev Akmal Baltayevich</b>	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI .....	120
<b>Parpiyev Jaxongir Iloxomjonovich</b>	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
<b>Xalikov S. X.</b>	



TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALINI BAHOLASH .....	131
<b>Zufarov Akmal Gulamiddinovich</b>	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI .....	141
<b>Eshqobulova Charos O'roq qizi</b>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	148
<b>Алимова Дилафруз</b>	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	153
<b>Usmonova Diyora Mahmud qizi</b>	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI .....	161
<b>Radjabov Umurzoq Ablakulovich</b>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ .....	165
<b>Аллаева Г.Ж.</b>	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN .....	169
<b>Mamatova Sevara</b>	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI .....	175
<b>Nabiyev G'ulom Abdusalomovich</b>	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI .....	185
<b>Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li</b>	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI.....	189
<b>Mahmudov Ulug'bek Davronovich</b>	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI .....	193
<b>Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	197
<b>Mamatkulova Nadira Maxkamovna</b>	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	203
<b>Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li</b>	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	210
<b>Бозорова Озода Рахимовна</b>	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH.....	222
<b>Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich</b>	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI.....	226
<b>Mavlyanov Muzaffar Yusupovich</b>	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI .....	230
<b>Isakov.J.Ya</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI .....	238
<b>Faxriddinov Bahriddin</b>	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI .....	243
<b>Raximov Furqat Jalolovich</b>	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
<b>Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoyeva Mehriyo Ilhom qizi</b>	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
<b>M.I.Murodova</b>	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
<b>Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li</b>	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
<b>Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI .....	271
<b>Muxammadov Nodir Karimovich</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH .....	277
<b>Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich</b>	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
<b>Dilfuza Shokirova</b>	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
<b>Raximjonova Shohsanam Baxodirovna</b>	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
<b>Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li</b>	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI .....	299
<b>Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li</b>	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI .....	303
<b>Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi</b>	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS .....	308
<b>D.D. Omonova</b>	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI .....	314
<b>Hojiakbar Zaynabidinov</b>	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
<b>No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li</b>	
IPAKCHILIK KLASTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
<b>Xudoykulov Mamarasul Radjabovich</b>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
<b>Shermamatov Sirojiddan Xaydarovich</b>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
<b>Egamberdiyev Muzaffar</b>	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД» .....	339
<b>Иминов Акбаржон Одилжонович</b>	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA .....	345
<b>Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.</b>	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSIYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	350
<b>Yusupov Muxiddin Soatovich</b>	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI .....	358
<b>Avazov Ilhom Ravshanovich</b>	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI .....	363
<b>S. Saparova, M. Musaeva, M.Mirsadikov, M.Mukimov</b>	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI .....	370
<b>Safoyev Nuriddin Najmiddin o'g'li</b>	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUTSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI .....	377
<b>Kuziev Ravshan Ramazonovich</b>	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI .....	385
<b>Boyturayev Olimjon Urayimovich</b>	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI .....	392
<b>Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA YILQICHILIK VA TUYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH .....	396
<b>Sabit Gabbarov Nietali'evich</b>	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR .....	402
<b>Xamidov Anis Choriyevich</b>	
NEXUS BETWEEN RENEWABLE ENERGY USE AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN .....	407
<b>Xalimjonov Nurbek Ulug'bek o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li, Jumamuratov Sultanbek Ilyosovich</b>	
MOLIYAVIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	415
<b>Akishova Shaxnoza Davlet qizi</b>	
O'ZBEKISTON O'RMON XO'JALIGIDA INNOVATION MOLIYALASHTIRISH: NORMATIV TAYANCH, BOZOR INSTRUMENTLARI VA EKOTIZIM XIZMATLARI .....	420
<b>Mamatqulova Muxlisaxon Mamirjanovna</b>	
SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSIYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV .....	425
<b>Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	431
<b>Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna</b>	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ «ЗЕЛЁНОГО» ФИНАНСИРОВАНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ .....	436
<b>Мирдовидов Бахтиер Кобилевич</b>	
MILLIY IQTISODIYOT UCHUN INVESTITSIYA RESURSI SIFATIDA UY XO'JALIKLARI JAMG'ARMALARINI RIVOJLANTIRISH .....	443
<b>Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich</b>	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARI HIMOYA VOSITALARINI SUN'IY INTELLEKT BILAN INTEGRATSIYALASH MUAMMOLARI .....	448
<b>Bozorov Suhrobjon Mumin o'g'li</b>	



SANOAT KORXONALARIDA KPI TIZIMINI JORIY QILISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	453
<b>Tursunov Orifali Samandarovich</b>	
IQTISODIY BARQARORLIKGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	457
<b>Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna</b>	





# IQTISODIY BARQARORLIKGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna**

Farg'ona davlat texnika  
universitetining doktoranti (DSc)  
ORCID: 0000-0002-8596-2473

E-mail: [sevarikabdullayeva@gmail.com](mailto:sevarikabdullayeva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ichki va tashqi muhit omillarining harakteri, ta'sir mexanizmi hamda ularning farqlovchi jihatlari tahlil qilingan. Ichki omillar – tashkiliy-boshqaruv, ishlab chiqarish va moliyaviy-iqtisodiy omillar korxonaning joriy va strategik barqarorligini ta'minlovchi asosiy drayverlar ekanligi, tashqi muhit omillari esa korxonaning iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi dinamik va statik institutsional omillardan, rasmiy va norasmiy qoidalardan iborat ekanligi ifodalangan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy barqarorlik, ichki omillar, tashqi omillar, moliyaviy barqarorlik, raqobatbardoshlik, siyosiy va huquqiy omillari.

**Abstract.** The article analyzes the nature, mechanism of influence, and distinguishing features of internal and external factors affecting the economic stability of an enterprise. It is emphasized that internal factors — organizational-managerial, production, and financial-economic — are the main drivers ensuring the enterprise's current and strategic stability, whereas external factors consist of dynamic and static institutional conditions as well as formal and informal regulatory norms governing the enterprise's economic activity.

**Keywords:** economic stability, internal factors, external factors, financial sustainability, competitiveness, political and legal factors.

**Аннотация.** В статье проанализированы характер, механизм воздействия и отличительные особенности внутренних и внешних факторов, влияющих на обеспечение экономической устойчивости предприятия. Отмечено, что внутренние факторы — организационно-управленческие, производственные и финансово-экономические — являются основными драйверами, обеспечивающими текущую и стратегическую устойчивость предприятия, тогда как внешние факторы представляют собой совокупность динамических и статических институциональных условий, а также формальных и неформальных регуляторных норм, влияющих на экономическую деятельность предприятия.

**Ключевые слова:** экономическая устойчивость, внутренние факторы, внешние факторы, финансовая стабильность, конкурентоспособность, политические и правовые факторы.

## KIRISH

Korxonaning iqtisodiy barqarorligi – uning uzoq muddat davomida o'z moliyaviy, tashkiliy, ishlab chiqarish va bozor pozitsiyalarini saqlab qolishi, tashqi va ichki xavf-xatarlarga bardoshli bo'lishi hamda raqobatbardoshlikni ta'minlash qobiliyatidir. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy barqarorligi uzluksiz daromadga erishish va o'z faoliyatining yuqori ko'rsatkichlarini ta'minlash maqsadida tashqi va ichki omillarning salbiy ta'siriga nisbatan korxonaning ishlab chiqarish, moliyaviy va xo'jalik tizimining bardosh bera olishi hamda zudlik bilan aks munosabat qila olish qobiliyatiga egaligini ifodalovchi holatdir. Ushbu ta'riflardan ma'lumki, korxonaning iqtisodiy barqarorligi tashqi (korxonada boshqaruv ostida bo'lmagan ekzogen) va ichki (xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lgan endogen) omillar bilan chambarchas bog'liq. Ichki va tashqi omillar nafaqat harakteri, balki ta'sir mexanizmi, davomiyligi va boshqarish imkoniyati bilan bir-biridan farqlanadi.

Iqtisodiy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar tizimi murakkab, o'zaro bog'liq va dinamik xususiyatga ega. Tashqi omillar korxonada tomonidan boshqarilmasada, strategik qarorlar qabul qilishda asosiy mezon sifatida



xizmat qiladi. Ichki omillar esa korxonalar barqarorligini ta'minlash uchun to'g'ridan-to'g'ri boshqariladigan resurslar tizimini tashkil qiladi. Shu sababli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ichki omillarni optimal boshqarish, tashqi omillarga esa moslashuvchan strategiya ishlab chiqish eng samarali yo'nalish hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

I.Fisher[2] o'zining iqtisodiy barqarorlik bo'yicha klassik ishida qarzdoflyatsiyasi, narxlar darajasining pasayishi va talabning qisqarishi iqtisodiy tizimdagi beqarorlikning asosiy manbalari ekanini asoslaydi. Fisherga ko'ra, iqtisodiy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar – pul-kredit siyosati, qarzd yuklamasi va iste'molchilar kutilmalari. U iqtisodiy jarayonlardagi nomutanosibliklar iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishini tajriba va tarixiy tahlillar bilan ko'rsatadi.

R.Solow[3] maqolasida iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini kapital, mehnat va texnologik taraqqiyot bilan bog'lab, ularning iqtisodiy barqarorlikdagi rolini nazariy asoslaydi. Solow modeli ishlab chiqarish omillari o'zgarishi iqtisodiy tizimni uzoq muddatda qanday ta'sirga ega ekanini ko'rsatadi. Tadqiqotga ko'ra, texnologik innovatsiyalar va inson kapitali barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biridir.

D.North[4] tadqiqotida institutsional omillarning iqtisodiy barqarorlikdagi o'rnini chuqur tahlil qilib, samarali institutlar – mulk huquqi, shaffof boshqaruv, qonun ustuvorligi va samarali davlat siyosati barqaror rivojlanishning asosiy sharti ekanini ta'kidlaydi. Northga ko'ra, institutsional o'zgarishlar iqtisodiy tizimda tranzaksiya xarajatlarini kamaytirib, investitsion muhitni yaxshilaydi. Bu omillar iqtisodiy barqarorlikka uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi.

R.Barro[5] ilmiy izlanishida iqtisodiy barqarorlikka ta'sir etuvchi makroiqtisodiy omillarni — inflyatsiya, fiskal intizom, investitsiya muhiti va siyosiy barqarorlikni empirik jihatdan o'rganadi. Uning tadqiqotlari yuqori inflyatsiya darajasi va davlat qarzining keskin oshishi iqtisodiy barqarorlikni izdan chiqarishini ko'rsatadi. Barro siyosiy barqarorlik, mustahkam institutlar va investitsiya oqimlari o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni statistik dalillar bilan isbotlaydi.

J.Stiglitz[6] tadqiqotida iqtisodiy barqarorlikning ijtimoiy omillarini — tenglik, ta'lim, sog'liqni saqlash sifati va ijtimoiy himoya tizimlari orqali baholaydi. Stiglitz bozorning ichki nomutanosibliklarini kamaytirish va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash iqtisodiy tizimning mustahkamligini oshirishini ta'kidlaydi. U iqtisodiy barqarorlikni faqat makrobarqarorlik bilan emas, balki inson kapitali va ijtimoiy institutlar sifati bilan bog'laydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi o'zgaruvchan kattalik. Uning o'zgarishi korxonaning faoliyat yuritayotgan muhitida yuzaga keladigan omillar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Tashqi muhit bir vaqtning o'zida sanoat korxonasida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini rag'batlantiruvchi hamda cheklovchi omil sifatida xizmat qiladi. Korxonaning ishlab chiqarish strategiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan omillar tashqi muhitda namoyon bo'ladi. Tashqi muhit barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar va iqtisodiy voqea-hodisalarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar manbai bo'lib, ushbu ta'sir boshqaruv tarkibi va sifati, iqtisodiy ko'rsatkichlar, strategik va taktik maqsad hamda vazifalardagi o'zgarishlarda aks etadi.

Keng ma'noda tashqi muhit cheksiz bo'lib, u o'z tarkibiga xo'jalik faoliyatidan tashqaridagi barcha narsalarni (hodisalarni) qamrab oladi. Tashqi muhit korxonaning iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi dinamik va statik institutsional omillardan, rasmiy va norasmiy qonun-qoidalardan iborat. Shuni ta'kidlash lozimki, tashqi omillar tizimi sanoat korxonasining nazorati ostida bo'lmaganligi sababli korxonaga unga ta'sir qila olmaydi yoki bunday ta'sir ahamiyatsiz, chunki tashqi omillar sanoat korxonasining faoliyat ko'rsatadigan muhitini shakllantiradi va harakatga keltiradi. Tashqi muhitning barcha omillarini tadqiq etish amaliy jihatdan samarali natijani shakllantirmasligi ma'lum, shuning uchun bizningcha uning to'qimachilik korxonalarini faoliyatiga bevosita ta'sir qiluvchi va korxonaga o'z faoliyatini davom ettirishi uchun aks xatti-harakat qilishi lozim bo'lgan jihatlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Shunda tashqi muhit to'qimachilik korxonasi kundalik hamda strategik belgilangan faoliyatida duch keladigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar majmuasidan va sohaga bog'liq bo'lgan turli omillardan iborat bo'ladi. Shuningdek, tashqi muhit omillarini xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan nazorat hamda boshqarilmasligi kabi o'ziga xos xususiyati mavjudligini unutmaslik lozim. Shuning uchun korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda asosiy e'tiborni ichki muhit omillariga, ya'ni korxonaning o'z faoliyatiga bog'liq bo'lganlariga qaratish muhimdir (1-jadval).

1-jadval. Korxonaning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi muhit omillari<sup>1</sup>

Omil	Xususiyati
Siyosiy va huquqiy	Davlat va mahalliy hokimiyat organlarining qonunchilik faoliyati, soliqqa tortishning tamoyillari va usullari, davlatning standartlash va sertifikatlash tizimi, mahsulot va xizmatlar sifatini nazorat qilish, mehnat qilish qonunchiligi, huquqiy jihatdan tadbirkorlarni va iste'molchilarni himoya qilish tizimi hamda faoliyatni litsenziyalash
Iqtisodiy	Korxonaning barqaror daromadga ega bo'lishi mamlakat iqtisodiyotning holatiga va farovonligiga bog'liq. Iqtisodiyotning ijobiy holati esa bozorda mahsulotlarga shakllangan talab va taklif, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari, iqtisodiy davr (sikl)ning rivojlanish bosqichi, valyuta bozorining barqarorligi va inflyatsiya darajasi bilan belgilanadi.
Ijtimoiy va madaniy omillar	Ijtimoiy-demografik jarayonlarni, jamiyatning farovonlik darajasini, mehnat resurslarining holati va mehnat qilish salohiyatining sifatini ifodalagan holda aholining turmush kechirish tarzini, iste'mol va mehnat qilishni shakllantirishga, talab darajasiga, mahsulotlarni realizatsiya qilish bozorlarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu omillar tendensiyasi asosida iste'mol tarkibi yangilanib yangi mahsulot va xizmatlarga talab shakllanadi. Bu esa o'z navbatida korxonalarining ishlab chiqarish strategiyasini tubdan o'zgartirilishiga sabab bo'ladi.
Texnologiyaga oid omillar	So'nggi o'n yillik davr mobaynidagi texnologiyaga oid o'zgarishlar va ishlanmalarni (kashfiyotlarni) ifodalaydi. Transport, aloqa va texnikaning yangi shakllari bir vaqtning o'zida keng imkoniyatlar bilan birga tahdidlarni ham ifodalaydi. Bulardan o'z vaqtida xabardor bo'lish korxonalar uchun ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish asosida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatini shakllantiradi.

Siyosiy va huquqiy omillar korxonaning iqtisodiy barqarorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar nafaqat mamlakatdagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi natijasida korxonaning barcha faoliyat sohalaridagi o'zgarish bilan namoyon bo'ladi, balki soliq, bojxona va kredit xizmatlari kabi boshqa tizimlar bilan munosabatlarda ham ifodalanadi. Siyosiy va huquqiy omillar korxonalar o'z faoliyatini tashkil etishi lozim bo'lgan qonuniy bazani yaratadi. To'g'ri shakllantirilgan qonuniy baza korxonalar faoliyatining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qilgan holda uning iqtisodiy faoliyatining samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotning salohiyatini, mamlakat to'lov balansining holatini, investitsion jozibadorlik va ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini ifodalovchi iqtisodiy omillar resurslarning qiymatiga hamda iste'molchilarning xarid qilish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiyot davri (sikl)ning bosqichi korxonalar iqtisodiyotining barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Chunki mamlakatda makroiqtisodiy beqarorlikning yuzaga kelishi va buning natijasida ishlab chiqarish hajmining kamayishi, ishsizlik va inflyatsiya kabi salbiy ko'rsatkichlardagi o'sish iqtisodiy davr bosqichining davomiyligiga bog'liq. Shuning uchun davlatning iqtisodiy siyosati, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning barchasi mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining faoliyatini takomillashtirilishini ko'zda tutadi. Korxonalar faoliyatining takomillashuvi ularning iqtisodiy o'sishi, yuqori iqtisodiy barqarorlikka erishishi bevosita mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi.

Texnologik omillar korxonalarini yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratishga, mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish usullarini modernizatsiyalashga, yangi imkoniyatlarga ega bo'lish maqsadida ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini faoliyatga joriy etishga undaydi. Biroq, ilmiy-texnologik taraqqiyot korxonalar faoliyati uchun tahdidlarni ham yuzaga keltiradi. Texnologiya va ishlab chiqarishni o'zgartirish juda ko'p kapital va vaqt talab qiladigan jarayondir. Ushbu vaqt davomida korxonalar o'z bozor ulushini yo'qotishi yoki modernizatsiya uchun sarf qilingan xarajatlarni qoplay olmasligi mumkin [7]. Shuning uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar butun faoliyatini zamonaviy fan-texnika yutuqlari asosida doimiy ravishda takomillashtirib borishi lozim. Korxonalar yangilanish jarayonlariga moslashuvchan bo'lishi lozim, bu esa nafaqat ichki bozorda balki jahon bozorlarida ham o'z mahsulotiga bo'lgan talabni doimiy ravishda o'rganishi hamda xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishni joriy etishi lozim.

Korxonalar tashqi omillarni tahlil qilish bilan tobora rivojlanib borayotgan bozorda o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga, tashqi manbalarga iqtisodiy bog'liqligini baholashga, kelajakdagi moliyaviy holatini bashorat qilishga va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha faol choralarini ishlab chiqarishga erishadi. Ammo tashqi omillar o'zgaruvchan ekanligini va ularning ta'sir darajasi har bir alohida davrda turlicha bo'lishi mumkinligini unutmaslik lozim, shuning uchun korxonalar o'zining istiqboldagi rivojlanish yo'nalishini belgilab olishi uchun tashqi muhit omillarining o'zgarishiga nisbatan zudlik bilan aks barcha harakat qilishi hamda moslashishi lozim bo'ladi.

<sup>1</sup> Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.


Korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ichki muhit omillari esa muhim va asosiy drayverlardan biri hisoblanadi. Bu omillar korxonaga tomonidan to'liq nazorat qilinadi, boshqariladi va ularni strategik ravishda takomillashtirish orqali korxonaning moliyaviy, tashkiliy, ishlab chiqarish va raqobatbardoshlik salohiyatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Ichki omillarning ahamiyati shundaki, ular nafaqat joriy iqtisodiy barqarorlikni, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanish, raqobat ustunligi, innovatsion salohiyat va bozordagi nufuzni ham belgilaydi. An'anaviy tarzda ushbu omillarni quyidagi uchta guruh asosida ifodalash mumkin:

- tashkiliy – boshqaruv omillari;
- ishlab chiqarish omillari;
- moliyaviy – iqtisodiy omillar.

Ichki muhit omillarini tahlil qilib, birinchi guruh (tashkiliy-boshqaruv) omillari korxonaning asosiy strategiyasini belgilashga, vazifalar va maqsadlarni taqsimlashga, bozorda korxonaning taktikasini ishlab chiqishga, uning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qilishi aniqlandi[15]. Shuningdek, tashkiliy va boshqaruv omillari korxonada korporativ boshqaruv tizimi, risk-menejment, kadrlar siyosati, innovatsion boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, ushbu omillar korxonaning ichki resurslarini muvofiqlashtirish, samarali taqsimlash va optimal boshqarishni ta'minlaydi.

Zamonaviy boshqaruv usullarini joriy qilish orqali:

- resurslarni boshqarish samaradorligi oshadi;
- tezkor va asoslangan qaror qabul qilish imkoniyati paydo bo'ladi;
- risklarni prognoz qilish va bartaraf etish mexanizmlari yaratiladi;
- korporativ madaniyat va innovatsion muhit shakllanadi (1-rasm).



1-rasm. Korxonaning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir qiluvchi va uni bevosita shakllantiruvchi ichki muhit omillari.<sup>2</sup>

<sup>2</sup> Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



Ishlab chiqarish omillari korxonaning texnologik salohiyati, ishlab chiqarish quvvatlari, asbob-uskunalar va texnologiyalarning zamonaviyligi, xomashyodan foydalanish samaradorligi, resurs tejamkorligi va mahsulot sifati bilan bog'liq. Bu omillar korxonaning real sektordagi barqaror faoliyati va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatini belgilaydi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish omillari korxonaning mulkiy-xo'jalik holatini, asosiy va aylanma kapital bilan ta'minlanganlik hamda undan foydalanish darajasini, xarajatlar tarkibiy tuzilmasini, shuningdek, texnologik-ishlab chiqarish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini hamda mahsulot tannaxini hisoblash usullarini tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Bunday tahlil asosida korxonaning ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyati qanchalik barqaror hamda samarali bo'lishi mumkinligini prognoz (bashorat) qilish imkoniyatini shakllantiradi, shu bilan birga foydani ta'minlovchi pul oqimlarining qanchalik uzluksiz ekanligini aniqlanadi. Ishlab chiqarish omillarining samarali tashkil etilishi quyidagi ustunliklarni ta'minlaydi:

- ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi;
- mahsulot sifati xalqaro standartlarga mos keladi;
- energiya va resurs tejamkorligi orqali qo'shimcha iqtisodiy samara hosil bo'ladi;
- eksportbop mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati kengayadi [8].

Moliyaviy-iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan omillar iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiluvchi ichki muhit omillarining eng asosiylaridan biri hisoblanadi. Ular o'z tarkibiga korxonaning moliyaviy resurslari va daromadlarini boshqarish strategiyasi hamda taktikasini, qarz va o'z mablag'lari miqdorini, majburiyatlar va to'lov qobiliyatini qamrab oladi, shuningdek korxonaning investitsion salohiyatini va muhitini shakllantiradi.

Moliyaviy-iqtisodiy omillarning samarali boshqarilishi quyidagi natijalarni keltirib chiqaradi:

- bankrotlik xavfi kamayib, korxonaning ichki moliyaviy barqarorlik indeksi oshadi;
- tashqi investitsiya va kredit resurslarini jalb qilish imkoniyati kengayadi;
- korporativ investitsiyaviy reyting yuqorilaydi;
- moliyaviy resurslarni optimal taqsimlash hisobiga rentabellik ko'rsatkichini oshirishga erishiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ichki omillarga asosiy e'tiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz, chunki doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlash, faoliyat turini va mahsulot tarkibini tanlash, joriy aktivlarni samarali boshqarish, kapitalning oqilona tuzilishini va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash korxonalariga to'liq yoki qisman bog'liq bo'lgan omillardir.

Tashqi muhit omillari esa korxonaning boshqaruvidan to'liq tashqarida va bu kabi omillar korxonaning faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda o'zgaradi. Lekin shuni yodda tutish lozimki, korxonaning bankrotligi tashqi va ichki omillarning bir vaqtning o'zida salbiy kombinatsiyalangan ta'sirining natijasidir. Korxonaning iqtisodiy barqarorligi ham ichki, ham tashqi omillarga bog'liq bo'lgan ko'p o'lchovli tushuncha hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash korxonadan nafaqat xom-ashyo yetkazib beruvchilar, raqobatchilar, boshqaruv va hisob tizimini nazorat qilishni, balki yangi tendensiya va texnologik o'zgarishlar ta'sirini, keng imkoniyatlarni bashoratlash va tahlil qilishni talab etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva, S (2025) "Tarmoqlararo integratsiyani takomillashtirish asosida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash: ishlab chiqarish va bank sektorining o'zaro hamkorligi". Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, vol. 2, no. 5, Oct. 2025, pp. 327-36, <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss5-pp327-336>
2. Fisher, I. (1933). The Debt-Deflation Theory of Great Depressions. *Econometrica*, 1(4), 337–357.
3. Solow, R. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. *Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65–94.
4. North, D. C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Barro, R. (1991). Economic Growth in a Cross Section of Countries. *Quarterly Journal of Economics*, 106(2), 407–443.
6. Stiglitz, J. (2010). *Freefall: America, Free Markets, and the Sinking of the World Economy*. New York: W.W. Norton & Co.
7. Abdullayeva, S (2025) "To'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni tashkil etuvchi resurslar tarkibi". Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, vol. 2, no. 1, Feb. 2025, pp. 273-81, <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss1-pp273-281>.
8. Abdullayeva, S. (2025) "Korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'nalishlari". Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, vol. 3, no. 9, Sept. 2025, pp. 347-53, <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss9-pp347-353>.
9. Abdullayeva, S. (2025) "To'qimachilik mahsulotlarining bozor kon'yunkturasi tahlili". Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, vol. 2, no. 3, July 2025, pp. 985-90, <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss3-pp985-990>.
10. Абрютинa, Марина Сергеевна. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия : Учеб.-практ. пособие / Абрютинa М. С., Грачев А. В.. — Москва: Дело и сервис, 1998. — 255 с.: 22 см.; ISBN 5-8018-0037-9.
11. Емельянова Е.Ю., Агрегирование предпочтений на основе точного решения задачи о ранжировании Кемени. дис. ... кандидат наук. Томск – 2022.



12. Fatkhutdinov, U.T. (2022). Innovatsion Menejment va Korxonon Barqarorligi. TDIU Nashriyoti.
13. Леонтьев, В. Е. Финансирование и кредитование предприятий: учебник для вузов / В. Е. Леонтьев, В. В. Бочаров, Н. П. Радковская. — 4-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2025. — 183 с. — (Высшее образование). 4-е изд., пер. и доп. Учебник для вузов
14. Ковалев А.И., Привалов В.П. Анализ финансового состояния предприятия - 4. изд., испр. и доп. - Москва: Центр экономики и маркетинга, 2000. - 204 с.: ил., табл.; 21 см. - (Библиотека хозяйственного руководителя; Кн. 5 (37)).; ISBN 5-85873-046-9
15. Khasanovna, A. S. (2025). Efficient Use of The Company's Workforce as A Key Factor in Ensuring Economic Sustainability. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 6(4), 1557-1570. DOI: <https://cajitmf.casjournal.org/index.php/CAJITMF/article/view/1033>.
16. Kaplan, R., & Norton, D. (2021). Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Harvard Business Review Press.
17. Илдарханова, Д.Ш. (2023). Инновацион салохият ва барқарор ривожланиш моделлари. Экономика и финансы, №4.
18. Teece, D. (2020). Dynamic Capabilities and Strategic Management. Oxford University Press.
19. Xodjaniyozov, B.B. (2024). ESG omillar asosida iqtisodiy barqarorlik indeksini baholash. O'zbekiston iqtisodiy jurnali, №1.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)